

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



RAQAMLI
MARKETING
SAVDO
BIZNES
TARAQIYOT
INNOVATSIYA
WATUJ
BANDUJ

№7 – SON

2025-YIL, IYUL

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



zenodo

ORCID

OPEN ACCESS



Marketing

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

ELEKTRON NASHR. 31 IYUL, 2025-YIL

JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabel Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekanini professor

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 372 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-iyulda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОВЕДЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ СРЕДСТВ.....	6
Икрамов Мурат Акрамович, Юлдашев Жамшид Аббарович	
KOMPANIYALAR EKOMARKETING STRATEGIYASIDA “YASHIL” BRENDING TENDENSIYALARI.....	13
Sa’dulloyev Habibullo Ibodullo o‘g‘li	
МАРКЕТИНГОВЫЙ ПОДХОД К РЕШЕНИЮ ЗАДАЧ УСТОЙЧИВОГО УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕСОМ	21
Ренкер Клеменс, Багиев Георгий Леонидович, Икрамов Мурат Акрамович	
XORAZM VILOYATIDA SANOATNING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING DINAMIKASI TAHLILI.....	29
Ibragimov Jaxongir Baxodirovich	
O‘ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGI YUQORI BO‘LGAN HUDUDLARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI.....	36
Astanov Sherzod Rustamovich	
HALOL STANDARTLARINING MAZMUN-MOHİYATI, ASOSIY TALABLARI VA IJTIMOİY-IQTISODIY TUSHUNCHALARI	45
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
QURITILGAN MEVALAR EKSPORTIDA MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	56
Yunusov Baxodir Marisovich	
KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHGA YO‘NALTIRILGAN STRATEGIK MARKETING YONDSHAUVLARI.....	64
Xidirov Sherzod Olimovich	
BIZNES JARAYONLARNING LOGISTIKA AUTSORSINGI	70
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA YASHIL MOLIYALASHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI	78
Oripov Ilhom Abdullayevich	
NAMANGAN VILOYATIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH	90
Inamov Farhodjon Ikrom o‘g‘li	
“YASHIL” SANOAT SIYOSATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	97
Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi	
TIJORAT BANKLARI FAKTORING XIZMATLARI ASOSIDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI	108
Jalilov Azizbek Baxodir o‘g‘li	
MINTAQAVIY IJTIMOİY-IQTISODIY TIZIMDA SAMARADORLIK VA SIFATNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI	117
Jumanov Sherzod Norboyevich	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA MAQSADLI AUDITORIYANI ANIQLASHDA SUNIY INTELLEKT VOSITALARI VA ULARDA MARKETING STRATEGIYALARINI QO‘LLASH.....	126
Maxmudov Faxriddin Umarovich	

ELEKTRON TIJORATDA TESKARI LOGISTIKANING INNOVATSION MODELLARINI QO‘LLASH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI.....	134
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o‘g‘li	
MINTAQADA QURILISH ISHLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI	150
Jumanov Sherzod Norboyevich	
FROM PARTNERSHIP TO STRATEGIC ALLIANCE: MAPPING FUTURE COLLABORATION BETWEEN INDIA AND UZBEKISTAN	159
Abror Kucharov, Jyoti Meshram	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	167
Alimardonov Asrorjon Alimardonovich	
ZIYORAT TURIZMI BO‘YICHA XALQARO TAJRIBALAR VA ULARDAN O‘ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Salomov Temurbek Boburmirzo o‘g‘li	
O‘ZBEKISTON AGROSANOAT ZANJIRLARIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMLARINI JORIY ETISHGA TASHQI MUHIT OMILLARI TA‘SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH	180
Djumayev Asror Almamatovich	
TRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONSEPTSIYASI	190
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna	
SOG‘LIQNI SAQLASH TA‘LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	198
Jonibekov Jasurbek Jonibekovich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF LOGISTICS SERVICES IN FREE ECONOMIC ZONES. STRATEGIC CONCEPT ON THE EXAMPLE OF JIZZAK FEZ	204
Mukhiddinov Muminjon Shavkiddin ugli	
SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISHNING TIBBIYOT OLIY TA‘LIM MUASSASASALARI TA‘LIM SIFATIGA TA‘SIRI.....	213
Nazarova Fotima Xakimovna, Jonibekov Jasurbek Jonibekovich	
MAKROIQTISODIYOTDA ISTE‘MOL TALABI NAZARIYASI VA UNING MARKETING TADQIQOTLARIDA QO‘LLANILISHI.....	219
Rustamov Narzillo Istamovich	
O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGIDA MOLIYAVIY TAHDIDLARNI BOSHQARISHDA BILIMLAR DARAJASINING ROLI	227
Sadibaqosov Suxrob Toshpo‘lot o‘g‘li	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSION OMILLARNING TA‘SIRINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI	235
Sapayeva Fazilat Norbayevna	
MODALAR BIZNESIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	241
Ziyayeva Shahlo Shoakbar qizi, Yuldasheva Dilorom Shaxzod qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAYENS NAZORAT TIZIMINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI	248
Tuychiyev Alisher Jurayevich, Kurbanbayeva Zuxra Abduraxmon qizi	
СТИМУЛИРОВАНИЕ ЭКСПОРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	257
Матлюбов Хуршид Жамшидович	

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ.....	266
Самединов Тимур	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI RAQAMLASHTIRISH JARAYONIDA BIG DATA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABA FIKRLARINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI OPTIMALLASHTIRISH	279
Akbarov Nodir Gafurovich	
BANK XIZMATLARI MARKETINGIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASHNING INNOVATSION IMKONIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	287
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH INNOVATSION YONDASHUVLAR VA INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV METODOLOGIYASI.....	295
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi	
KORXONALARDA RAQOBAT RAZVEDKASI TIZIMIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN METODOLOGIK YONDASHUVLARNI RIVOJLANTIRISH	304
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
ZIYORAT TURIZMI BO'YICHA XALQARO TAJRIBALAR VA ULARDAN O'ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	311
Salomov Temurbek Boburmirzo o'g'li	
ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MODDIY OQIMNI BOSHQARISHDA LOGISTIKA XIZMATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-TASHKILIY MEXANIZMI	315
Maxmidov Shirinboy Botirovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING NAZARIY MASALALARI	322
Gozieva Mokhira Rustamovna	
YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH	330
Turobjanov Murodjon Maxammadjanovich	
BOJXONA TIZIMIDA TRANSPORT LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	335
Kucharov Abror Sabirjanovich, Alijanova Komila Toxir kizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BYUDJETLASHTIRISHDAN FOYDALANGAN HOLDA BOSHQARUV TIZIMINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	344
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MARKETINGDA SUN'IY INTELLEKT	352
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA EKSPORT HAJMINI OSHIRISHDA XALQARO MARKETING STRATEGIYASI AHAMIYATI.....	358
Akramov Tohir Abdirahmonovich	
MINTAQALAR INVESTITSION SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHNING INSTITUTIONAL ASOSLARI.....	364
Qobilov Anvar Eshpo'lotovich	

TRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONSEPTSIYASI

Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna

TDIU, “Marketing” kafedrası doktoranti

E-mail: mukhabbatergasheva@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi avtotransport xizmatlari bozori, ayniqsa transport-ekspeditsiya xizmatlarida mavjud muammolar tahlil qilingan. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida bozorning samarali faoliyatini ta’minlashga yo‘naltirilgan konsepsiyani ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilgan. Taklif etilayotgan konsepsiyada transport-ekspeditsiya xizmatlariga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan nazariy asoslar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: avtotransport xizmatlari, transport-ekspeditsiya, xizmatlar samaradorligi, avtotransport xizmatlarini boshqarish, avtotransport xizmatlari sohasi, transport-ekspeditsiya xizmatlarining samaradorligi.

Аннотация

This article analyzes the existing problems in the road transport services market of the Republic of Uzbekistan, particularly in the field of freight forwarding services. To address these issues, special attention is given to the development of a concept aimed at ensuring the effective functioning of this market. The proposed concept includes both theoretical foundations and practical recommendations designed to fundamentally change the approach to freight forwarding services.

Ключевые слова: автотранспортные услуги, транспортная – экспедиция, эффективность оказания услуг, схема управления автотранспортными услугами, сфера автотранспортных услуг, эффективности транспортно – экспедиционных услуг.

Abstract

В статье проанализированы существующие проблемы на рынке автотранспортных услуг Республики Узбекистан, в частности в сфере транспортно-экспедиционных услуг. Для их решения уделено особое внимание разработке концепции, направленной на обеспечение эффективного функционирования данного рынка. Предлагаемая концепция включает как теоретические основы, так и практические рекомендации, направленные на кардинальное изменение подхода к транспортно-экспедиционным услугам.

Keywords: auto transport services, transport — expedition, efficiency of services, management of auto transport services, field of auto transport services, efficiency of transport and expeditionary services.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining 53-bandida O‘zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini

chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish vazifalari belgilangan hamda uni amalga oshirish natijasida yo‘lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini uch barobar oshirish maqsadi qo‘yilgan [1].

Ushbu maqsadga erishish borasida O‘zbekistonda avtotransport xizmatlari bozorini yanada takomillashtirish, ayniqsa mazkur konsepsiyani samarali amalga oshirishda iqtisodiy kategoriyalardan biri sifatida transport-ekspeditsiya xizmatlariga nazariy tavsif berish va ularni amaliyotga tatbiq etishda yetarli huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, taqdim etilayotgan maqolada muallif tomonidan 20 yildan ortiq davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida to‘plangan tajriba asosida takliflar ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston va xorijiy olimlar hamda amaliyotchilar ishlanmalarida avtotransport xizmatlari bozori, uni tashkil etish, korxona, tashkilot va aholi ehtiyojlarini qondirish masalalariga katta e‘tibor qaratilgan. Masalan, Abdullayev B.I. shahar avtobus yo‘nalishlarida transport xizmati sifati ko‘rsatkichlarini takomillashtirish mavzusida ko‘plab tadqiqotlar olib borgan [2].

Jamoat transporti faoliyatini tashkil etishda marketing tadqiqotlari va vositalaridan foydalanish muammolarini hal etishda Berdiyev T.A. [3], G‘iyosiddinov B.B. [4] va Irisbekova M.N. [5] tomonidan amalga oshirilgan nazariy va amaliy qarashlarni keltirish mumkin.

Temir yo‘l sohasida yuk tashish va ushbu yo‘nalishda logistika tizimining shakllanishiga Kamalova E.A.ning ilmiy ishlari bag‘ishlangan [6]. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi xususiyatlar, raqobat muhiti sharoitida transport korxonalarining salohiyatidan to‘liq foydalanishni tashkil etishga Nabyeva N.M. [7] va Yusupxo‘jayeva G.B. [8] tomonidan dissertatsiya ishlari amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda mualliflar xizmat ko‘rsatishning jamiyatdagi o‘rni ortib borayotgani hamda ishlab chiqarish korxonalari bilan raqobatlashuv salohiyatidan to‘laqonli foydalanish zarurligiga e‘tibor qaratgan.

Avtotransport korxonalarining faoliyatini boshqarish va ularning samaradorligini oshirishda marketing hamda menejment tizimlaridan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishda ustozimiz professor Ikramov M.A. tomonidan olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar izlanishimiz asosi bo‘lib xizmat qilgan [9],[10]. Ularning ilmiy ishlanmalarida avtotransport korxonalarining yuridik va jismoniy shaxslarga ko‘rsatayotgan xizmatlar mavqeyi ortib borayotgani, ammo transport vositalarining eskirgani, logistik tizimni takomillashtirish zarurati mavjudligi hamda infratuzilmalar zamonaviy talablarga to‘liq javob bera olmasligi masalalari o‘rganilgan va bu bizning tadqiqotlarimizga turtki bo‘lgan.

Olib borilgan tadqiqotlarda avtotransport korxonalari tomonidan amalga oshirilayotgan xizmatlar sifati zamon talablariga, ayniqsa raqamlashtirish jarayonlariga mos emasligi, ular orasida transport-ekspeditsiya xizmatlarining mohiyati va mazmuni o‘zgarib borayotgani qayd etilgan. Shu bois, yuqorida ko‘tarilgan muammoni hal etish uchun mualliflik yondashuvlarini taklif qilish hamda zamonaviy konsepsiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda transport-logistika xizmatlari bozori va transport infratuzilmasini takomillashtirish, korxonalar hamda aholiga avtotransport xizmatlarining ham miqdorini, ham sifatini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ayni yo‘nalishdagi ishlar samaradorligini yaqqol ifodalaydi [11]. Shu qaror asosida O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Uning asosiy maqsadi iqtisodiyot va biznesning yuqori sifatli yuk tashish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirish, mamlakat tranzit salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, eksport-import operatsiyalari qiymatida transport xarajatlarini kamaytirish hamda istiqbolli transport yo‘laklarini shakllantirishga qaratilgan islohotlarni davom ettirishdan iborat [12].

Respublikamizda transport xizmatlari bozor hajmi o‘shining asosiy omillaridan biri 8,6 foizlik ko‘rsatkich (o‘shish sur‘atiga 1,4 punkt hissa qo‘shgan) bilan bog‘liq [13]. 1-jadvalda xizmatlar miqdori va ularning o‘shish sur‘ati asta-sekin yaxshilanib borayotgani aks etgan. Avtotransport sohasi tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar hajmi ham umumiy transport xizmatlariga nisbatan ko‘proq ulushni tashkil etgan (111,9 % 108,6 % ga nisbatan).

1-jadval


**Xizmatlar sohasining, jumladan, transport xizmatlarining o‘shishi
(2024-yil yanvar – sentyabr)**

Xizmatlar turlarining nomi	Xizmat xajmi, mlrd so‘m		Ulushi, %	O‘shish sur‘ati,%
	2023	2024		
Xizmatlar, jami	448484,4	564777,7	100,0	112,8
Transport xizmatlari	75899,0	97091,9	17,2	108,6
Jumladan, avtotransport xizmatlari	36364,0	46370,2	8,2	111,9

Agar oxirgi besh yil mobaynida ko‘rsatilgan avtotransport xizmatlari hajmini tahlil qilsak, 2023-yilga nisbatan pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2024-yil natijalari yaxshilanganini ko‘rish mumkin (1-rasm)¹.


Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlarda ham bozor mexanizmi takomillashgan sari avtotransport xizmatlarining ulushi tobora ortib bormoqda. Bizning respublikamizda ham xuddi shunday tendensiya kuzatilmoqda. Masalan, 1-rasmda keltirilganidek, 2021-yilda COVID-19 pandemiyasi munosabati bilan oziq-ovqat va dori-darmonlarni aholiga yetkazib berish, ayniqsa vodiyan Tashkent va boshqa viloyatlarga sabzavot hamda mevalarni tashib kelish bilan bog‘liq jarayonlar avtotransport xizmatlari hajmiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

¹ Jadval Milliy statistika qo‘mitasi materiallaridan tayyorlandi



1-rasm. Avtotransport xizmatlarining o'sish sur'atlari¹

Hozirgi paytda avtotransport xizmatlari bozorini boshqarishda quyida 2-rasmda keltirilgan chizma asosida faoliyat yuritish lozim. Ushbu chizmada ko'rsatilganidek, avtotransport xizmatlari bozorini samarali tashkil etish uchun narx, pul-kredit, soliq va boshqa iqtisodiy hamda tashkiliy omillar o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatadi. Xizmatlar hajmi, jumladan, avtotransport vositalari orqali amalga oshirilayotgan faoliyatning yaxshilanib borishi ijobiy natija sifatida qayd etiladi. Biroq, oxirgi davrda transport-ekspeditsiya xizmatlariga bo'lgan qiziqishning sustlashgani ham kuzatilmoqda (2-rasm).



2-rasm Avtotransport xizmatlari bozorini boshqarish chizmasi²

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

Birinchi navbatda, transport xizmatlari va transport-ekspeditsiya xizmatlari asosi bir bo'lsa-da, mazmunan farqlanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 9-sentyabrdagi qarorida "Transport-ekspeditsiya xizmati — yukni jo'natish va qabul qilib olish jarayonini tashkil etish, shuningdek, transport-ekspeditsiya shartnomasiga muvofiq yuk tashishga aloqador boshqa ish turlarini bajarish bilan bog'liq transport xizmati turi" deb ta'riflangan [14]. Boshqacha qilib aytganda, yuk tashuvi "A" manzildan "V" manzilga yetkazib berish bo'lsa, transport-ekspeditsiya xizmatlari buyurtmachining (korxona, tashkilot, aholi) barcha ehtiyojini qondiradigan xizmatlar majmuasidan iborat.

Transport-ekspeditorlik xizmatlari tarkibiga quyidagi faoliyat turlari kiradi:

- yukni jo'natish joyidan belgilangan manzilgacha tashishni tashkil etish;
- buyurtmachining shart-sharoitlariga ko'ra yuklarni tashishning maqbul sxemasini tanlash;
- yuk jo'natuvchining ombori (terminali)dan yukni qabul qilib olish, yuk qabul qiluvchining omboriga (terminaliga) yetkazib berish va uni topshirishni;
- yuklarni o'rash, joylash (qadoqlash), markalash, bog'lash, navlarga ajratish va saqlashni;
- yukni sug'urtalashni;
- yuk jo'natilganligi, turgan joyi va belgilangan manzilga yetib kelganligi (yukning harakati dispozitsiyasi) haqida xabardor qilishni;
- boshqa ekspeditorlar xizmatlari, tariflari va ish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda boshqa tezkor axborotni taqdim etishni;
- transport-ekspeditorlik faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar berishni;
- bojxona tartibotlarini bajarishni;
- yuk tashilganligi uchun tashuvchi bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishni;
- yuk tashish bilan bog'liq boshqa hujjatlarni tayyorlashni.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, yuqorida qayd etilgan Vazirlar Mahkamasining 2000-yildagi qaroridan tashqari birorta me'yoriy hujjatda transport-ekspeditsiya xizmatlariga alohida munosabat bildirilmagan. Vaholanki, 2001-yilda respublikamizda Avtotransport vazirligi tugatildi, undan keyingi davrda avtotransport korxonalari xususiylashtirildi va shu bilan birga davlat tomonidan yordam mexanizmlari deyarli yo'qoldi. Qaysi korxona bank kreditlari hisobidan harakatdagi transport vositalari yoki unga xizmat qiluvchi infratuzilmani tiklay olgan bo'lsa, xizmatlar bozorida saqlanib qoldi, aksariyat tashkilotlar esa inqirozga uchradi.

2021-yilda O'zbekistonda "Transport to'g'risida"gi yangi qonun ishlab chiqildi. Ammo afsuski, ushbu qonunda transport-ekspeditsiya xizmatlariga alohida e'tibor qaratilmadi. Vaholanki, respublikada, ayniqsa Toshkent shahrida qurilish hajmining keskin oshishi, aholi va tashkilotlarning ko'chish yoki yuk tashish ehtiyojining ortishi bilan vaziyat yanada dolzarb bo'ldi. 2020-yilda O'zbekistonda yetkazib berishning muhimligini barcha chuqur his etdi. Shu bilan birga transport-ekspeditsiya xizmatining asosiy maqsadi — yukni jo'natish va qabul qilib olish jarayonini tashkil etish,

shuningdek, transport-ekspeditsiya shartnomasiga muvofiq yuk tashishga aloqador boshqa ish turlarini bajarish bilan bogʻliq transport xizmatining amalda toʻlaqonli amalga oshirilishi mavhum boʻlib qoldi.

Buning asosiy sabablari meʼyoriy hujjatlarning eskirishi, axborotni qayta ishlashda yangi texnologiyalarning sust joriy etilishi va raqamlashtirish jarayoniga oʻtishda muammolarning hal etilmasligidir. Natijada avtotransport xizmatlari bozori samaradorligi pasayib ketdi¹.

Iqtisodiy adabiyotlarda hali transport-ekspeditsiya xizmatlari haqidagi iqtisodiy kategoriya deyarli ishlatilmay qoʻyilgan. Masalan, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da «Ekspeditor» — (lot. expeditor — bormoq, joʻnatmoq) “korxona, muassasa va shu kabi mol, tovar, gazeta, jurnal, xat-xabarlarini tegishli joylarga tarqatish bilan shugʻullanuvchi xodim” deb taʼriflangan. “Ekspeditsiya” esa “tartibga solish, safar, sayohat, yubormoq, joʻnatmoq” sifatida izohlangan [15].

Boshqacha qilib aytganda, korxonalar, tadbirkorlar va aholiga xizmat sifatini oshirishda transport-ekspeditsiya xizmatlarini yanada ochiq-oydin tushuntirish, umumiy xizmatlar ulushida miqdorini oshirish, hisob-kitob mexanizmini koʻrsatish hamda ekspeditorlik faoliyatini amalga oshirayotgan avtotransport korxonalarini har tomonlama qoʻllab-quvvatlash zarurdir. Bunday mexanizm nafaqat iqtisodiy samaradorlikka, balki ijtimoiy va ekologik vazifalarning hal etilishiga ham olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalar, muassasalar va aholining, ayniqsa kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik vakillarining avtotransport xizmatlaridan toʻlaroq foydalanish ehtiyojini qondirishda turli mulk shakllari egalari masʼuliyati va manfaatini ragʻbatlantiradigan mexanizm ishlab chiqilishi zarur. Bu borada 2021-yil 9-avgustda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining “Transport toʻgʻrisida”gi Qonuniga tegishli oʻzgartirishlar kiritilishi maqsadga muvofiq boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Transport toʻgʻrisida”gi Qonunida belgilangan transportga oid besh prinsipga (qonuniylik, xavfsizlik, ekologik tozalik, transport xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, ochiqlik va shaffoflik) raqamlashtirish talablari asosida isteʼmolchi bilan aks aloqani joriy etish, yaʼni xizmatlardan qoniqish darajasini belgilovchi mexanizmni yaratish lozim.

Amalda qoʻllanilayotgan GPS va GLONASS tizimlaridan aholi va tadbirkorlarga transport-ekspeditsiya xizmatlarini samarali koʻrsatishda kengroq foydalanish talab etiladi. Bunday sharoitda Yandeks tizimiga oʻxshash infratuzilmalarni amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Xizmat koʻrsatuvchi korxonalar natijalarini Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlarida nafaqat umumiy koʻrsatkichlarda, balki alohida statistik qator sifatida ajratib koʻrsatish foydali boʻladi.

Avtotransport xizmatlari bozorini rivojlantirish maqsadida shu yoʻnalishda tahsil olayotgan menejer, marketolog va iqtisodchilarning oʻquv jarayoniga transport-ekspeditsiya xizmatlari iqtisodiy kategoriyasini ixtisoslik fan sifatida kiritish lozim.

¹ Oʻzbekiston Respublikasining “Transport toʻgʻrisida”gi Qonuni, 2021-yil 9-avgust.

Avtotransport, jumladan transport-ekspeditsiya xizmatlarini amalga oshirish va baholash uchun oʻrnatilgan konsepsiya, mezonlar va boshqa talablar asosida hisob-kitob algoritmini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznes va tadbirkorlik vakillarida alohida ekspeditsiya boʻlimini ochish samaradorligi yuqori boʻlmashligini inobatga olib, autsorsing modelini joriy etish yoki Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshida maslahat markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni
<https://lex.uz/ru/docs/6600413>

2. Абдуллаев Б.И. Шаҳар автобус йўналишларида транспорт хизмати сифат кўрсаткичларини такомиллаштириш. – PhD автореферати, Т.: ТАЙЛҚДИ, 2019 й.

3. Бердиёров Т.А. Жамоат транспорти фаолиятида маркетинг тадқиқотларидан фойдаланишни такомиллаштириш. – PhD автореферати, Т., ТДИУ, 2021 й

4. Гиёсиддинов Б.Б. Жамоат транспортининг жозибардорлигини оширишда маркетинг воситаларидан фойдаланишни такомиллаштириш. - PhD автореф., – Т.: ТДИУ, 2024 й.

5. Ирисбекова М.Н. Маркетинг тамойиллари асосида транспорт хизматлари бозорини оптималлаштириш. — DSc автореф., Т.: ТАЙИ, 2017 й.

6. Камалова Э.А. Юкларни ташишнинг логистик бошқарувини такомиллаштириш. - PhD автореф. - Т.: ТДИУ, 2019 й.

7. Набиева Н.М. Хизмат кўрсатиш корхоналарини ривожлантиришнинг маркетинг стратегиясини ишлаб чиқиш. – PhD автореф., Т.: ТДИУ, 2021 й.

8. Юсупходжаева Г.Б. Автотранспорт корхоналари рақобат салоҳиятидан самарали фойдаланиш. PhD автореф., Т.: ТДТУ, 2020 й.

9. Икрамов М.А., Зоҳидов А.А. Автомобильно — дорожный сектор государств Центральной Азии: проблемы и перспективы развития. Монография. – Т.: изд. библ.А.Навои, 12,5 п.л

10. Икрамов М.А. Маркетинговая стратегия Республики Узбекистан в сфере услуг. Конф. ТДИУ 2017 йил, 24 ноябрь,. 281-284 бетлар.

11. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil, 27-yanvardagi PQ– 28 – son “Oʻzbekiston Respublikasining transport – logistika tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari toʻgʻrisida” gi Qarori.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025-йил 27-январдаги ПҚ-28-сон қарорига 1-ИЛОВА “Ўзбекистон Республикасининг Транспорт – логистика тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси.”
<https://lex.uz/docs/7342148#7343720>

13. www.stat.uz – Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитасининг расмий сайти
14. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 9 сентябрь № 348 «Ўзбекистон Республикасида транспорт — экспедиторлик фаолиятини тартибга солишни такомиллаштириш тўғрисида»ги Қарори <https://lex.uz/docs/362374>.
15. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 9 августдаги ЎРҚ-706-сон «Транспорт тўғрисида»ги Қонуни. <https://lex.uz/docs/5563039>
16. «Ўзбек тилининг изоҳли луғати» 5- жилд. -Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2008 й.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**